UO‘K: 63. 631,42

QIZILTEPA TUMANI YER MAYDONLARINING OZIQA MODDALARI BILAN TA’MINLANISH DARAJASI

Abdullayev Abdumajit Saminjonovich,
bo‘lim boshlig‘i,
e-mail: abdumajida207@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-4769-2262
Ruziyev Abror Meylikulovich,
bo‘lim boshlig‘i,
e-mail: abror001848@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-3145-0354

“Tuproq tahlil markazi” davlat muassasasi

Annotasiya. Tadqiqotda Qiziltepa tumani sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydoni tuproqlarining oziqa moddalari bilan ta’minlanganlik darajasi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari hudud tuproqlarining oziqa moddalari bilan o‘rtacha, past darajada ta’minlanganligini ko‘rsatdi: tuproqning gumus miqdori ko‘rsatkichi umumiy 29764,04 gektar maydonning 45,00 % qismi o‘rtacha darajada, 32,58 % qismi ko‘proq darajada, 17,46 % qismi ko‘proq darajada hamda 4,15 %, 0,66 % va 0,15 % qismi mos ravishda ko‘p, juda kam va yuqori darajada ta’minlangan. Harakatchan fosfor (P_2O_5) miqdori ko‘rsatkichlari esa 47,38 % qismi kam darajada, 36,06 % qismi juda kam darajada hamda 8,57 %, 4,17 % va 3,82 % qismi mos ravishda o‘rtacha, ko‘p va ko‘proq darajada ta’minlangan. Shuningdek, almashinuchan kaliy (K_2O) miqdori ko‘rsatkichlari ham 51,79 % qismi kam darajada, 28,94 % qismi o‘rtacha darajada hamda 10,27 %, 6,13 % va 2,88 % qismi mos ravishda juda kam, ko‘proq va ko‘p darajada ta’minlangan. Olingan natijalar asosida tuproq unumdorligini oshirish maqsadida mineral va organik o‘g‘itlardan oqilona foydalanish, agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish, tuproq degradatsiyasining oldini olish hamda yer resurslaridan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: sug‘oriladigan yerlar, ozuqa moddalari, fosfor, kaliy, gumus, agrokimyoviy tahlil, o‘g‘itlash tizimi, mineral o‘g‘itlar, harakatchan elementlar.

Аннотация. В исследовании изучался уровень обеспеченности почв питательными веществами на орошаемых сельскохозяйственных угодьях Кизилтепинского района. Результаты исследования показали, что почвы района умеренно обеспечены питательными веществами: показатель содержания гумуса на общей площади в 29764,04 гектара составляет: 45,00 %-на среднем уровне, 32,58 %-на высоком уровне, 17,46 %-на высоком уровне, а также 4,15 %, 0,66 % и 0,15 %-на высоком, очень низком и высоком уровнях, соответственно. Содержание подвижного фосфора (P_2O_5) составляет 47,38 %-на низком уровне, 36,06 %-на очень низком уровне, 8,57 %, 4,17 % и 3,82 %-на среднем, высоком и высоком уровнях соответственно. Кроме того установлено, что показатели содержания обменного калия (K_2O) были обнаружены в 51,79 % почв на низком уровне, в 28,94 %-на среднем уровне и в 10,27 %, 6,13 % и 2,88 %-на очень низком, высоком и высоком уровнях, соответственно. На основе полученных результатов были разработаны научные рекомендации по рациональному использованию минеральных и органических удобрений и правильной организации агротехнических мероприятий с целью повышения плодородия почвы. Результаты исследования имеют большое значение для получения высоких урожаев сельскохозяйственных культур, предотвращения деградации почвы и эффективного использования земельных ресурсов.

Ключевые слова: орошаемые земли, питательные вещества, фосфор, калий, гумус, агрохимический анализ, система применения удобрения, минеральные удобрения, подвижные формы элементов.

Annotation. The study examined the nutrient status of soils in irrigated agricultural lands

in the Qiziltepa district. The results showed that the district's soils are moderately nutrient-rich: the humus content over a total area of 29764,04 hectares is 45,00 % at the medium level, 32,58 % at the high level, and 17,46 % at the high level, as well as 4,15 %, 0,66 %, and 0,15 % at the high, very low, and high levels, respectively. The content of available phosphorus (P2O5) is 47,38 % at the low level, 36,06 % at the very low level, and 8,57 %, 4,17 %, and 3,82 % at the medium, high, and high levels, respectively. Furthermore, exchangeable potassium (K2O) levels were detected in 51,79 % of the soil at low levels, 28,94 % at moderate levels, and 10,27 %, 6,13 %, and 2,88 % at very low, high, and very high respectively. Based on the results obtained, scientific recommendations were developed for the rational use of mineral and organic fertilizers and the proper organization of agricultural practices to improve soil fertility. The results of the study are of great importance for achieving high agricultural yields, preventing soil degradation, and the efficient use of land resources.

Key words: irrigated lands, nutrients, phosphorus, potassium, humus, agrochemical analysis, fertilization system, mineral fertilizers, mobile elements.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi bevosita tuproq unumdorligi va uning ozuqa moddalari bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarida tuproqning agrokimyoviy holatini o‘rganish, uning tarkibidagi asosiy oziqa elementlari-gumus, fosfor va kaliyning miqdori hamda o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilish darajasini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [1].

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan uzoq yillar davomida intensiv foydalanish, agrotexnika tadbirlarining ilmiy asosda olib borilmasligi hamda mineral o‘g‘itlardan muvozanatsiz foydalanish va boshqa omillar natijasida tuproq unumdorligining pasayish jarayoni kuzatilmoqda [2]. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydoni tuproqlarida ozuqa elementlari balansining buzilishi oqibatida gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy miqdorining kamayishi aniqlangan [3].

Shu bois, mazkur hudud sug‘oriladigan tuproqlarining agrokimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning ozuqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasini baholash hamda tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi: - tuman hududidagi sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydoni tuproqlarining ozuqa moddalari bilan ta’minlanganlik darajasini aniqlash, ularning agrokimyoviy holatini baholashdan iborat.

Tadqiqot obyekti va uslublari.

Tadqiqotlar Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarida olib borildi. Hudud Zarafshon vodiysining janubi-g‘arbidagi kambar tekisligida Qiziltepa va Oftobachi platolari orasida, Hazora darasi bo‘ylab ketgan Zarafshon daryosining ikki qirg‘og‘i havzasi, Shohrud va Abu Muslim shohariqlari orasidagi hududlarda joylashgan. Shimoldan tuman hududiga Qizilqumning kichik bir qismi kirib kelgan. Voha Zarafshonning chap sohili bo‘ylab Malikcho‘l, Qiziltepa, Quyimozor adirlari, janubdan Qarnob cho‘li bilan tutashgan quruq iqlimli agroekotizim hisoblanadi [4].

Ozuqa elementlari bilan ta’minlanish darajasini baholash maqsadida dala kuzatuvlari asosida tuproq namunalari standart chuqurliklardan olinib, laboratoriya sharoitida tahlil qilindi. Tuproq mexanik tarkibi OZDST-81797, gumus-GOST-26213-91 davlat standarti asosida aniqlandi. Tuproq namunalari tarkibidagi harakatchan fosfor (P2O5) miqdori Machigin usulida (TSINAO) modifikatsiyasi asosida va almashinuvchan kaliy (K2O) miqdori alangali fotometr orqali aniqlanib, natijalar asosida tuproqlar ozuqa elementlari bilan ta’minlanish darajasi bo‘yicha klassifikatsiya qilindi. Tahlillar “Tuproq tahlil markazi” davlat muassasasi sinov laboratoriyasida amalga oshirildi [5], [6], [7], [8].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tuman hududi ikkita

ISSN 2181-0826 2/2026 y.


bioiqlim, cho‘l va yarim cho‘l zonalariga joylashgan murakkab geomorfologik tuzilishga ega bolib, konus yoyilmalari, uchlamchi platolar va qoldiq ko‘tarilmalar, turli yoshdagi qayir usti terrasalariga tutashgan o‘rta balandlikdagi va past tog‘lar, past-baland tog‘ oldi hududlari va nishab-qiyalik tog‘ osti tekisliklaridan iborat. Hududning xilma-xil geomorfologik va iqlim sharoitlarida tuproqlarning keng genetik qatori shakllangan. Sug‘oriladigan dehqonchilikda bo‘z-o‘tloqi, sur tusli qo‘ngir, sur qo‘ng‘ir o‘tloqi, cho‘l o‘tloqi, taqir o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlardan foydalaniladi [9].

Tadqiqot natijalari asosida tuproq-ning asosiy ozuqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasi hamda gumus, harakatchan fosfor (P2O5) va almashi-nuvchan kaliy (K2O) miqdori ko‘rsatkichlari ajratildi. Gumus miqdori ko‘rsatgichlari umumiy 29764,04 gektar maydonning 45,00 % qismi o‘rtacha darajada, 32,58 % qismi ko‘proq darajada, 17,46 % qismi kam darajada hamda 4,15 %, 0,66 % va 0,15 % qismi mos ravishda ko‘p, juda kam va yuqori darajada ta’minlangan (1-jadval, 1-rasm).

1-jadval

Tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining gumus miqdori ko'rsatkichlari

T/r	Massivlar nomi	Tekshirilgan maydon, ga	Gumus miqdori % hisobida												Jami gumus, % hisobida
			Juda kam 0-0,40		Kam 0,41-0,80		O'rtacha 0,81-1,20		Ko'proq 1,21-1,60		Ko'p 1,61-2,00		Yuqori > 2,0		
			ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	
1	Al-Buxoriy	2613,00	49,10	1,88	836,68	32,02	1353,16	51,79	319,39	12,22	40,75	1,56	13,92	0,53	100,00
2	O'rtacho'l yulduzi	4361,00	38,79	0,89	1192,77	27,35	2173,32	49,84	936,08	21,46	14,73	0,34	5,31	0,12	100,00
3	Zarmetan	1045,99			34,56	3,30	253,05	24,19	614,98	58,79	143,40	13,71			100,00
4	Q.Qobilov	1542,72					335,55	21,75	1056,31	68,47	150,86	9,78			100,00
5	Dehqonobod	1282,12			45,21	3,53	290,07	22,62	793,46	61,89	148,92	11,62	4,46	0,35	100,00
6	Mehnat rohat	1976,84			121,86	6,16	676,52	34,22	1106,67	55,98	71,79	3,63			100,00
7	Tavois	1664,25			95,23	5,72	1034,53	62,16	488,30	29,34	46,19	2,78			100,00
8	A.Navoiy	1041,17	6,86	0,66	205,89	19,77	422,73	40,60	405,69	38,96					100,00
9	To'dako'l	336,92	10,63	3,16	101,25	30,05	179,84	53,38	45,20	13,42					100,00
10	Malikcho'l	840,38	18,88	2,25	225,88	26,88	566,14	67,37	29,48	3,51					100,00
11	Buxoro	2325,43			60,57	2,60	1388,56	59,71	716,72	30,82	159,58	6,86			100,00
12	X.Sulaymonov	3680,24	58,60	1,59	1826,27	49,62	1559,59	42,38	218,46	5,94	17,32	0,47			100,00
13	Quyimozor	753,23			4,70	0,62	151,81	20,15	454,10	60,29	142,62	18,93			100,00
14	Varozun	1748,60			13,80	0,79	640,37	36,62	968,32	55,38	126,11	7,21			100,00
15	Toshrabot	3145,40	13,24	0,42	365,06	11,61	1901,75	60,46	789,60	25,10	66,98	2,13	8,77	0,28	100,00
16	O'zbekiston	1406,75			66,54	4,73	466,70	33,18	755,14	53,68	105,59	7,51	12,78	0,91	100,00
Jami:		29764,04	196,10	0,66	5196,27	17,46	13393,69	45,00	9697,90	32,58	570,45	1,92	45,24	0,15	100,00




1-rasm. Tadqiqot o‘tkazilgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining gumus bilan ta’minlanganlik darajasi, gektar hisobida

Hudud tuproqlarining harakatchan fosfor (P2O5) miqdori ko‘rsatkichlari esa umumiy 29764,04 gektar maydonning 47,38 % qismi kam darajada, 36,06 % qismi juda kam darajada hamda 8,57 %, 4,17 % va 3,82 % qismi mos ravishda o‘rtacha, ko‘p va ko‘proq darajada ta’minlangan (2-jadval, 2-rasm).

2-jadval

Tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining gumus miqdori ko'rsatkichlari

T/r	Massivlar nomi	Tekshirilgan maydon, ga	Fosfor (P2O5) miqdori, mg/kg										Jami (P2O5), % hisobida
			Juda kam 0-15		Kam 16-30		O'rtacha 31-45		Ko'proq 46-60		Ko'p 60<		
			ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	
1	Al-Buxoriy	2613,00	728,24	27,87	1276,85	48,87	328,05	12,55	142,97	5,47	136,89	5,24	100,00
2	O'rtacho'l yulduzi	4361,00	1295,34	29,70	2509,41	57,54	264,26	6,06	126,62	2,90	165,37	3,79	100,00
3	Zarmetan	1045,99	89,37	8,54	341,67	32,66	173,42	16,58	155,39	14,86	286,14	27,36	100,00
4	Q.Qobilov	1542,72	781,19	50,64	641,12	41,56	86,72	5,62	26,57	1,72	7,12	0,46	100,00
5	Dehqonobod	1282,12	529,55	41,30	551,11	42,98	90,15	7,03	106,31	8,29	5,00	0,39	100,00
6	Mehnat rohat	1976,84	1218,61	61,64	483,05	24,44	166,71	8,43	57,39	2,90	51,08	2,58	100,00
7	Tavois	1664,25	606,98	36,47	739,67	44,44	207,81	12,49	59,79	3,59	50,00	3,00	100,00
8	A.Navoiy	1041,17	784,88	75,38	147,69	14,19	19,00	1,82	8,86	0,85	80,74	7,75	100,00
9	To'dako'l	336,92	189,26	56,17	115,76	34,36	20,14	5,98	7,12	2,11	4,64	1,38	100,00
10	Malikcho'l	840,38	411,23	48,93	333,61	39,70	55,55	6,61	10,67	1,27	29,32	3,49	100,00
11	Buxoro	2325,43	989,05	42,53	1167,89	50,22	116,05	4,99	23,75	1,02	28,69	1,23	100,00
12	X.Sulaymonov	3680,24	995,54	27,05	2250,76	61,16	259,99	7,06	66,47	1,81	107,48	2,92	100,00
13	Quyimozor	753,23	153,45	20,37	404,46	53,70	145,66	19,34	30,74	4,08	18,92	2,51	100,00
14	Varozun	1748,60	650,26	37,19	813,09	46,50	132,41	7,57	59,52	3,40	93,32	5,34	100,00
15	Toshrabot	3145,40	954,90	30,36	1659,84	52,77	383,48	12,19	96,55	3,07	50,63	1,61	100,00
16	O'zbekiston	1406,75	355,12	25,24	665,04	47,27	102,60	7,29	159,46	11,34	124,53	8,85	100,00
Jami:		29764,04	10732,97	36,06	14101,02	47,38	2552,00	8,57	1138,18	3,82	1239,87	4,17	100,00



2-rasm. Tadqiqot o‘tkazilgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining harakatchan fosfor (P2O5) bilan ta’minlanganlik darajasi, gektar hisobida


Shuningdek, hudud tuproqlarining almashinuchan kaliy (K2O) miqdori ko‘rsatkichlari quyidagicha: umumiy 29764,04 gektar maydonning 51,79 % qismi kam darajada, 28,94 % qismi o‘rtacha darajada hamda 10,27 %, 6,13 % va 2,88 % qismi mos ravishda juda kam, ko‘proq va ko‘p darajada ta’minlangan (3-jadval, 3-rasm).

ISSN 2181-0826 2/2026 y.

3-jadval

Tadqiqot o'tkazilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining almashinuvchan kaliy (K2O) miqdori ko'rsatkichlari

T/r	Massivlar nomi	Tekshirilgan maydon, ga	Kaliy (K2O) miqdori, mg/kg										Jami, (K2O) % hisobida
			Juda kam 0-100		Kam 101-200		O'rtacha 201-300		Ko'proq 301-400		Ko'p 400<		
			ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	ga	%	
1	Al-Buxoriy	2613,00			288,15	11,03	1310,84	50,17	613,71	23,49	400,30	15,32	100,00
2	O'rtacho'l yulduzi	4361,00	3056,40	70,08	1079,32	24,75	209,12	4,80	16,16	0,37			100,00
3	Zarmetan	1045,99			653,46	62,47	316,89	30,30	50,03	4,78	25,61	2,45	100,00
4	Q.Qobilov	1542,72			1465,32	94,98	77,40	5,02				0,00	100,00
5	Dehqonobod	1282,12			734,64	57,30	505,53	39,43	41,95	3,27		0,00	100,00
6	Mehnat rohat	1976,84			1456,41	73,67	474,45	24,00	45,98	2,33		0,00	100,00
7	Tavois	1664,25			923,67	55,50	652,58	39,21	74,08	4,45	13,92	0,84	100,00
8	A.Navoiy	1041,17			744,70	71,53	91,66	8,80	93,49	8,98	111,32	10,69	100,00
9	To'dako'l	336,92			146,77	43,56	147,29	43,72	42,86	12,72		0,00	100,00
10	Malikcho'l	840,38			638,55	75,98	182,22	21,68	19,61	2,33		0,00	100,00
11	Buxoro	2325,43			1305,40	56,14	1015,54	43,67	4,49	0,19		0,00	100,00
12	X.Sulaymonov	3680,24			2124,64	57,73	1207,78	32,82	265,11	7,20	82,71	2,25	100,00
13	Quyimozor	753,23			307,81	40,87	292,85	38,88	149,29	19,82	3,28	0,44	100,00
14	Varozun	1748,60			876,59	50,13	575,06	32,89	130,62	7,47	166,33	9,51	100,00
15	Toshrabot	3145,40			1497,01	47,59	1404,25	44,64	199,48	6,34	44,66	1,42	100,00
16	O'zbekiston	1406,75			1172,32	83,34	149,82	10,65	76,46	5,44	8,15	0,58	100,00
Jami:		29764,04	3056,40	10,27	15414,76	51,79	8613,28	28,94	1823,32	6,13	856,28	2,88	100,00



3-rasm. Tadqiqot o‘tkazilgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining almashinuvchan kaliy (K2O) bilan ta’minlanganlik darajasi, gektar hisobida

Tahlillar hudud tuproqlarining gumus bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichi o‘rtacha darajada, harakatchan fosfor (P2O5) miqdori ko‘rsatkichlari esa kam darajada, shuningdek, almashinuchan kaliy (K2O) miqdori ko‘rsatkichlari ham kam darajada ekanligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, hudud yer maydonlarining ozuqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasini yaxshilash uchun ilmiy asoslangan chora-tadbirlar muhim hisoblanadi. Sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun esa gumus miqdori, fosfor va kaliy ozuqa elementlari juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning agrokimyoviy kartogramma-larini tuzish iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Xulosa. Hudud tuproqlari unum-dorligini muhofaza etish va qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish maqsadida yer maydonlarida davriy tekislash ishlarini o‘tkazish, bu sug‘orish suvlaridan samarali foydalanish imkonini

beradi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini to‘g‘ri almashlab ekish dehqonchilikni yuksak madaniyat bilan yuritishning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, uning eng asosiy vazifasi birinchi navbatda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish bo‘lsa, ikkinchidan tuproq unumdorligini saqlash, begona o‘tlar, qishloq xo‘jaligi zararkunandalari va kasalliklariga qarshi samarali kurashish orqali ekinlar hosilini oshirishdan iborat.

O‘g‘itlar samaradorligini oshirish maqsadida organik va mahalliy (go‘ng) o‘g‘itlarni mineral o‘g‘itlar bilan kompost holda tayyorlab, xo‘jalik ekinlarini oziqlantirish uchun gektariga 30-35 tonnadan solish. Tuproq unumdorligini oshirish uchun uning xossa-xususiyatlarini, jumladan, gumus va ozuqa moddalar miqdorini oshirish, tuproqlarning ekologik holatini yaxshilash uchun alohida ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini turiga, naviga, biologik xususiyatiga va tuproq iqlim sharoitlariga bog‘liq holda o‘simliklarni biologik talabidan kelib chiqib, vegetatsiya davrida mineral o‘g‘itlarni tabaqalashtirilgan holda to‘g‘ri qo‘llash tuproq unumdorligini tiklashda, mineral o‘g‘itlarning samaradorligini va qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirishda, ayniqsa, mahsulot sifatini yaxshilashda ahamiyati beqiyosdir.

Organik o‘g‘itlardan foydalanish o‘simliklarni makro va mikro elementlar bilan ta’minlaydi, tuproqdagi oziq moddalar balansini tartibga solib turadi, qiyin eruvchan fosfatlarni o‘simliklar tomonidan yengil o‘zlashtiriladigan holatga o‘tkazish imkonini beradi. Mineral o‘g‘itlarning samaradorligini oshirishda mikroelementlarni qo‘llash eng muhim omillardan biridir. O‘simliklar mikroelementlarni juda oz miqdorda talab qilsada, fiziologik hayotiy jarayonlarida nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Mikroelementlar ta’sirida o‘simlik barglarida xlorofill ortadi, fotosintez jarayoni yaxshilanadi, o‘simlikning barcha qismlarida hayotiy faollik oshadi.

Fosforli o‘g‘itlarni o‘zlashtirishni yaxshilash maqsadida go‘ng-fosforli o‘g‘itlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Go‘ng-fosforli va tut ipak qurti g‘umbaklari hamda ularning eksperimentlaridan, parranda go‘ngi, go‘ng sharbati shuningdek, boshqa turdagi organik chiqindilardan ham keng foydalanish muhim. Xulosa o‘rnida tuman hududidagi yer maydonlarining ozuqa moddalari bilan ta’minlanish darajasi o‘rtacha past darajada. Tuproq unumdorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan o‘g‘itlash tizimini joriy etish, organik o‘g‘itlardan keng foydalanish, suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash hamda yer maydonlarining meliorativ holatni yaxshilash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kuziyev R.K., Abduraxmonov N.Yu. Tuproq unumdorligi va uni boshqarishning ilmiy asoslari // Monografiya – Toshkent, Navro‘z nashriyoti., 2017-yil.

2. Toshqo‘ziyev M.M., Sherbekov A.N. Результаты исследований направленые на разработку агротехнологии обогащения почвы органическим веществом.// Yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007-yil.

3. Saidov A.S. Sug‘oriladigan tuproqlarining meliorativ va agrokimyoviy holati. – Toshkent, 2018-yil.

4. Navoiy viloyati Qiziltepa tumani hokimligi rasmiy veb sahifasidan https://Qiziltepa.uz/oz.

5. Laboratoriya analizlari “TTM” DM halqaro ISO sertifikatiga ega bo‘lgan laboratoriya. Gost-2642385.

6. Gumus miqdori Gost 26213-91 davlatlararo standart asosida, tuproqning mexanik va granulometrik tarkibi O‘zDST 81797 davlat standarti asosida aniqlandi.

7. Arinushkina E.V Rukovodstvo po ximicheskomu analizu pochv. – Moskva., 1970 god. 491 s.

8. Metodi agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polivnex

xlopkovex rayonax. – Toshkent, 1963 god. 70 s.

9. O‘zbekiston Respublikasi tuproq qoplamlari atlasi – O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi. – Toshkent, 2010-yil.

10. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Sug‘oriladigan yerlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish va agrokimyoviy kartogrammalar tuzish hamda mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan ilmiy talabni ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar”. – Toshkent, 2019-yil.

UO‘K 631.452

BOBOTOG‘ HUDUDIDA VERTIKAL MINTAQALANISH SHAROITIDA TARQALGAN OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLARNING MEXANIK TARKIBI

Meliboyev Rustam Jumayevich,
mustaqil izlanuvchi

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Bobotog‘ hududi doirasida vertikal mintaqalanish sharoitida shakllangan och tusli bo‘z tuproqlarning mexanik tarkibi, ularning profil bo‘ylab taqsimlanishi hamda ekspozitsiyaga bog‘liq o‘zgarishlari tahlilli keltirilgan. Tadqiqot natijalari tuproqlarda yirik chang fraksiyasining ustunligini, loy fraksiyasining o‘rtacha miqdorini va mexanik tarkibning nisbatan barqarorligini ko‘rsatadi. Ekspozitsiyaga bog‘liq holda yuqori qatlamlarda differensiallashuv kuzatilishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: vertikal mintaqalanish, och tusli bo‘z tuproq, ekspozitsiya, mexanik tarkib, yirik chang fraksiyasi, loy fraksiyasi.

Аннотация. В данной статье проанализированы механический состав светлых серозёмов, сформированных в условиях вертикальной зональности на территории Боботога, их распределение по почвенному профилю, а также изменения в зависимости от экспозиции склонов. Результаты исследования показали преобладание крупнопылеватой фракции в почвах и среднее содержание глинистой фракции. Кроме того, установлена относительная устойчивость механического состава. Выявлено, что в верхних горизонтах почвы наблюдается определённая дифференциация, обусловленная экспозицией.

Ключевые слова: вертикальная зональность, экспозиция, светлые сероземы, механический состав, крупнопылеватая фракция, глинистая фракция.

Annotation. This article analyzes the mechanical composition of light sierozem soils formed under conditions of vertical zonation within the Bobotog area, their distribution along the soil profile, and their variations depending on slope exposure. The research results indicate the dominance of the coarse silt fraction and a moderate content of the clay fraction in the soils. In addition, the relative stability of the mechanical composition has been established. It was also found that a certain degree of differentiation occurs in the upper soil horizons depending on slope exposure.

Key words: light sierozem soils, mechanical composition, vertical zonation, slope exposure, coarse silt fraction, clay fraction.